



“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AJ LOKOMOTIV DEPOLARI VA “O‘ZTEMIRYO‘LMASHTA’MIR” UK DA BAJARILADIGAN TA’MIRLASH VA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISHDA “SMART DEPO” AXBOROT TIZIMINING TATBIQ ETILISHI

Umrzoqova Shohzoda Axrorjon qizi
Toshkent davlat transport universiteti, O‘zbekiston

Annotatsiya: “Smart Depo” axborot tizimi barcha lokomotivlar uchun yaratilgan axborot tizimlarining jamlamasi bo‘lib, yagona oynada foydalanishga imkoniyat yaratish uchun mo‘ljallangan. Maqsad va vazifalari depolar uchun mo‘ljallangan axborot tizimlaridan foydalanishda yagona yondashuvni ta‘minlash, vaqt sarfini qisqartirish, foydalanuvchilarga qulayliklar yaratish, hisobotlarni olishni yengillashtirishdan iborat.

2022-yilda yoqilg‘i-energetika resurslari va lokomotivlarning harakatlanishini nazorat qilish maqsadida GPS tizimi joriy etildi va videokameralar o‘rnatildi. 2022-yilda poyezdlar harakat xavfsizligiga ta‘sir etuvchi inson omillarini bartaraf etish hamda aniqlikni ta‘minlash maqsadida lokomotiv depolarda navbatchilarning ishlarini avtomatlashtirish dasturi ishlab chiqilib tatbiq etildi. 2022-yilda lokomotivlarga o‘z vaqtida texnik xizmat ko‘rsatish maqsadida Chuqursoy stansiyasida lokomotivlarga texnik xizmat ko‘rsatish sexi qurildi. Lokomotiv – asosiy transport bo‘lib, usiz tashish jarayonini amalga oshirib bo‘lmaydi [1-3]. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida lokomotivlar parkini modernizatsiyalash, yangilash va to‘ldirish qabul qilingan. Jamiyatning barqaror faoliyatini ta‘minlash maqsadida sakkizta lokomotiv depolarda lokomotivlarni va MVHT texnik xizmat ko‘rsatish va joriy ta‘mirlash bo‘yicha ta‘mirlash-ogohlantirish tizimi amalga oshirilmoqda, “O‘ztemiryo‘lmashta‘mir” UK zavodida esa lokomotivlarni mukammal ta‘mirlash va ularning xizmat muddatini uzaytirgan holda tiklash ishlari bajarilmoqda. 2022 yil oxirigacha KT-1, KT-2 ta‘mirlash turlari bo‘yicha 87 ta lokomotiv seksiyalari mukammal ta‘mirlandi. 2023-yilda ushbu ta‘mirlash turlari bo‘yicha 78 ta lokomotiv seksiyalari mukammal ta‘mirlash ishlarini bajarish nazarda tutilgan. 2019-yil 17-iyuldagi PIU-05-sonli shartnomaga ko‘ra, 22 ta yuk elektrovozi va 8 ta yuk va yo‘lovchi elektrovozlari ekspluatatsiya qilinib kelingan [5].

Loyihaning to‘liq nomi “Smart Depo” axborot tizimi qisqacha “Smart Depo” AT deb nomlanib bunda shaxsiy ma‘lumotlardan hamda autsorsing xizmatlaridan foydalanilmaydi. Elektron hukumatning ma‘lumotnomalar va klassifikatorlar registri (cs.egov.uz)da yuritiladi.

“Smart Depo axborot tizimini yaratish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son qaroriga asosan tasdiqlandi. Axborot tizimining egasi (buyurtmachi) sifatida “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati etib belgiladi. Axborot tizimini yaratishning asosiy maqsadi – ma‘lumotlarni elektron tarzda yuritish, ma‘lumotnoma va bayonnomalarni



shakllantirish, lokomotiv depo navbatchisi va ta'mir tahlil bo'limi xodimlari yozma ravishda yuritib kelayotgan jurnallardan voz kechgan holda jarayonlarni 80% gacha raqamlashtirish, qog'oz sarf 50% dan 70% gacha kamaytirish, lokomotiv deposining axborot tizimlarining o'zaro ishlashida yagona yondashuvni ta'minlash, etib belgilanganligi qayd etilgan [4].

Tashkilotning yuridik manzili

Manzil № 1: Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, O'zbekiston bekati.
El.pochta manzili: tch-1@railway.uz, 71 - 299-68-05.

Yaratish, takomillashtirish uchun asos me'yoriy-huquqiy hujjat nomi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son qaroriga 3e-ilovasi 21 bandi, me'yoriy-huquqiy asos raqami: PQ-357, 22.08.2022.

Topshiriqqa muvofiq amalga oshirish muddati boshlanish vaqti 01.08.2023; yakunlash vaqti 31.12.2023 etib belgilangan. Loyiha-texnik hujjatlarini ishlab chiquvchi O'zbekiston lokomotiv deposi hisoblanadi.

Elektron shaklga o'tkaziladigan xizmatlar ro'yxati:

1. Ta'mir tahlili monitoring.
2. "Kimyo texnologik laboratoriya bo'limi tahlil qilayotgan mahsulotlar natijalarini elektron hisobga olish" axborot tizimi monitoring.
3. "Lokomotivning tezlik o'Ichagich lentalarini va kassetalari rasshifrovkasi ma'lumotlarini ro'yxatga olish" axborot tizimi monitoring.

Axborot tizimining asosiy quyi tizimlari

1. Tahlil.
2. Hisobot.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rules of technical operation of railways of the Republic of Uzbekistan. T.: UzRailwaycontrol, 2012 – 93 p.

2. А. М. Юсуфов, Н.С. Қодиров, Ш.Ф. Жамилов, З.О. Келдибеков (2022). "Ўзбекистон темир йўллари" акциядорлик жамияти локомотив паркани техник ҳолатини таҳлили. "Yosh tadqiqotchi" doi.org/10.5281/zenodo.6298747.

3. N.M. Aripov, Sh.M. Suyunbayev, O.O. Xusenov Program for calculation of the fuel consumption of a shunter locomotive and the results of the experiment under this program // Young specialist.– 2022. – No 3. – P. 61-69. – EDN TPIHUL. <https://elibrary.ru/item.asp?id=49176920> 19.

4. <https://reestr.uz/projects/1638?type=passport>

5. <https://railway.uz/ru/proekty/1920/>